

ISAJON SULTONNING “BILGA XOQON” ROMANI

Madaminova Dilnura Bahodir qizi

Urganch davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton va uning “Bilga xoqon” asari haqida so‘z yuritiladi, shuningdek, “Bilga xoqon” romanining yaratilishi, badiiyligi, romandagi obrazlar, ramzlar tahlil qilinadi.

***Kalit so‘zlar :** tarixiy roman, “Bilga xoqon”, ilk roman, tarixiylik va reallik, turk xalqi, tabg‘ach.*

Keyingi yillarda o‘zbek adabiyotida tarixiy roman janrida ko‘plab asarlar yaratilayotgani milliy romanchiligimizda ijobiy hodisadir. O‘zbek tarixiy-badiiy nasrida qadimgi turkiylar hayoti qalamga olingan asarlar juda kam. “Bilga xoqon” romani qadim ajdodlarimiz obrazini yaratish yo‘lidagi dadil qadamlardir. “Sharq yulduzi” jurnalining 2019-yil 9- va 10- sonlarida taniqli yozuvchi Isajon Sultonning “Bilga xoqon” tarixiy romani bosilib chiqdi. Yaqinda Turkiyaning Bursa shahrida Turk til qurumi, Turk davlatlari kengashi, Turkiya madaniyat va turizm vazirligi, Otaturk nomidagi madaniyat, tarix va til yuksak qurumi tomonidan o‘tkazilgan “Tilda, fikrda, ishda birlik – turkiy dunyo adabiyot (roman) mukofotlari” tanlovi g‘oliblari taqdirlandi. Ular orasida Isajon Sulton ham bor, uning “Bilga xoqon” romani tanlovda g‘olib bo‘ldi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning “Bilga xoqon” tarixiy-biografik romani janriga ko‘ra, O‘zbekistonda ushbu mavzuda yaratilgan ilk roman sanaladi. 2022-yilda «Factor Books» nashriyoti tomonidan kitob holida chop etilgan.

“Bilga xoqon” romani – turkiy xalqlarning o‘n uch asrdan narigi davrdagi qayg‘ulari ifodasi. Yozuvchi toshbitiklar orqali yetib kelgan ma‘lumotlarni roman matniga mohirlik bilan singdirib yuborgan, qadimgi turk davridagi manzarani, qahramonlarning turkona tabiatini, hech narsadan tap tortmas botirligini saqlashga harakat qilgan. Asarda davr xususiyatiga ko‘ra, arabcha va forscha so‘zlar qo‘llanilmagan, roman sof turkiy tilda yozilgan. Roman turk uluslarining birlik, qahramonlik, to‘g‘rilik, fidokorlik kabi muqaddas an‘analaridan xabar beradi. Asarning birinchi bo‘limi “Kichik yish” deb nomlangan, roman “Ko‘gman tog‘i etaklariga qish bola tashlagan, qor momoguldurak bilan yoqqan edi.”, - deya boshlanadi. Roman boshlanishidagi Ishbara yamtar va Bulut obrazlari turk buduniga xos bo‘lgan qirralarni o‘zida ifoda etgani bilan diqqatga sazovordir. Roman tarixiylik

tamoyili asosiga qurilgani uchun, yozuvchi ortiqcha dabdababozlikka, romantik kayfiyatlarga berilmaydi. Bilga xoqon, To'nyuquq va Kultigin obrazlarini ideallashtirmasdan, ularning real qiyofasini chizadi. Asarda ko'kturk xoqonligi davri, milliy qahramonlar Bilga xoqon, Kul Tigin, Bilga To'nyuquq hayoti, ilk ko'kturk davlatining qurilishi va turk yasasining joriy qilinishi, O'rxun-Enasoy bitiklarining yaratilishi tarixi haqida so'z boradi. Roman Bilga xoqon boshchiligida turkiy uluslarning birlashishi davridan boshlab, tabg'achlarga qarshi kurashda g'alaba qozonishi, o'z davlatini tuzishi va yasasini joriy qilishi, bitiktoshlarning yaratilish tarixi va Bilga xoqonning xiyonat tufayli o'ldirilishigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Shu o'rinda, Bilga xoqonning tarixdagi adolatli, millatparvar xoqon sifatidagi obrazi Eltarish xoqon va Kul tigin obrazlari orqali mukammal tasvirlangan.

Tabiat hodisalari va turli mavjudotlarga ma'nolar yuklash, barcha narsalar o'z o'rnida qandaydir betakror timsol vazifasini o'tashi, professor Abdug'afur Rasulov alohida uqtirganidek, Isajon Sulton asarlariga xos muhim xususiyatlardan biridir. "Bilga xoqon" romanida ham yozuvchi tabiat tasvirini mohirona tasvirlaydi. Romanning ilk so'zlari ham tabiat tasviri bilan boshlanadi. Isajon Sulton ijodidagi tasvirlar hech kimnikiga o'xshamagan, o'ziga xos va takrorlanmas:

"Kun yanada yuksaldi, tevaragida oqish aylana yasadi;

Qattiq qish o'z yoyini olib tevarakka muz o'qlarini otgan, qordan to'siq yasab, izg'irin cherigini yoygan kez...;

Kun yonboshlamagan edi. Ko'k so'yilgan qo'zining terisiday och moviy bo'lib turardi..."

Isajon Sulton quyidagi voqeani hikoya qilar ekan, Ishbara va Bulut obrazlari orqali Vatanni qutqarib qolish yo'lida turk xoqonligining vatanparvarlari or-nomus uchun hatto o'limga ham tik borishga o'zlarida zarurat sezgan degan gapni aytmoqchi bo'ladi:

"– Shumi yigitlik? – dedi Ishbara. – Hoy siz! Eltarish xoqonning o'g'li Bilga xoqon so'zi qulog'ingizga kelmadimi?"

– Keldi oz-moz!

– Unda xotin-bolangizni qo'yib, Bilga xoqon so'ziga kirsangiz bo'lmaydimi? Boraylik, ne desa uni qilaylik.

Bilga xoqon bitta maqsadni – otasi Eltarish xoqon barpo qilgan Ikkinchi turk xoqonligini mustahkamlashni, bir-biriga dushmanlashgan turkiy qabilalarning boshini qovushtirishni ko'zlagan edi. Romanning qaysi o'rnida davlat va qabilalarni yakdil qilish manfaatlari turgan bo'lsa, Bilga xoqon obrazi yetakchilik qiladi. Romandagi tabg'ach xalqi tarixda kuch-qudrati bilan emas, balki makkorligi, turkiy qabilalarni bir-biriga dushman qilib parchalab tashlagani bilan nom qoldirgan. Quyidagi parcha turk budunining holatini tasvirlaydi:

“Kishilar yo‘qsillikda tubanlashib ketgan edilar! Birov birovni ko‘zga ilmas, oshliq o‘yi, kun kechirish qayg‘usi shu ko‘yga solib qo‘ygan, bo‘lar-bo‘lmas qush eti yo meva uchun urishib-so‘qishadigan turumga kelgan, qon to‘kishdan-da tap tortmas, yovqurligi, tikboshligi tugab bitgan edi. Yigit-yalang oshliq izlab olis ellarga ketib qolishar, tabg‘ach yo qitanga yollanib, er otiga to‘g‘ri kelmaydigan yumushlarni qilib yurishardi. Yilqi, yo mol boqib, qorovullik qilib, cherikka yollanib topganlarini oydayilda bir ena-otasiga yuborib, o‘zlari o‘sha yurtlarda esankirab, yerdayin bo‘lib yashashardi.”

Ishonuvchan, sodda turk qabilalari tabg‘achning nafis ipagiga, shirin so‘zlariga mahliyo bo‘lib, aldanib bir-biri bilan dushmanlashganini yozuvchi Bilga xoqon boshchiligida o‘n o‘q qabilasi ustiga yurish qilgani haqidagi voqealar orqali ko‘rsatadi. Bilga xoqonning o‘z ismiga munosib ravishda dono, mard xoqon. Bilga xoqon To‘nyuquqning “To‘qqiz o‘g‘uz o‘z qardoshimiz, qonimiz bir. Tuyqusdan bossak-chopsak, er kishini ishi bo‘lmas” degan maslahatiga rozi bo‘ladi, qarindoshlari to‘qquz o‘g‘uz, o‘n o‘q, qirg‘iz qabilasi ustiga qo‘qqisdan hujum qilishni o‘ziga ep ko‘rmaydi. Turklarning azal-azaldan qonida bor bo‘lgan mardlik va adolatparvarlikni yozuvchi juda o‘rinli topib tasvirlaydi.

Badiiy asarning tili uning umumiy muvaffaqiyatini belgilovchi bosh xususiyat hisoblanadi. Chunki badiiy ifoda, tasvir o‘quvchini dastlab asar voqeligiga, so‘ng muallifning adabiy (ma‘naviy) olamiga olib kiradi. Asar tili ilk jumllaridanoq o‘quvchiga nihoyatda sodda ko‘rinadi, bu soddalik esa o‘sha davr va muhit bilan uyg‘unlik kasb etgan. Bu uslub asar oxirigacha saqlanib qolgan:

“Bilga xoqon shunday dedi:

- Alplarim, botirlarim, erlarim, yigitlarim ! Yovni to‘xtamay bosasan.

- Otingni yeldirasan, to‘g‘ridan ura-ura borasan, so‘ng ayrilib, yonlamasiga yana urasan !

- Yelday uchib urishasan. Aylanib-aylanib urasan. Xalqali, yassili temir po‘stiningni, ustidan molteri po‘stiningni, boshingga dubulg‘angni kiyasan, o‘zingga o‘q tekkizmaysan...”

yoki turk qo‘shinining tabg‘achlarni mag‘lub qilish arafasida yaralanib jon berayotgan Bulutning Ishbara yamtar bilan qilgan savol-javob tasviri :

“– Ishbara! – dedi Bulut arang shivirlab. – Biz yengdikmi?

– Yengdik, Bulut! Tabg‘achni enasini ko‘rsatdik!

– Ulus endi erklimi ?

– Endi tugal erkli, Bulut! ”

O‘ziga o‘zi ishonmagan odam o‘z xalqiga, hukmdoriga sadoqatini ko‘rsata olmaydi, xiyonat qilish uchun payt poylab turadi. Meyli Chur obrazida ayni shunday toifadagi odamlarni ko‘ramiz. Meyli Chur va Ishbara, Bulut bir-biriga zid obrazlar. El

Bo'g'u tilidan aytilgan "Qorin-qursoq, oshliq qayg'usi er kishini tuban qilib qo'yar ekan-da" degan gapi romanning asosiy maqsadiga ishora qiladi. Turkiy qavmlarning parokanda bo'lib ketishlariga, birlasha olmayotganlariga qorin tashvishi sabab ekanini ko'rsatadi. "Bizning urug'lar yer yuzini yarmini to'ldirgan, dedi. To'g'ri, To'qqiz o'g'uz, qirg'iz, qitan o'z urug'imiz. Naryoqda Tinsi o'g'li yotadigan toqqacha, bu yoqda Temir Qopqagacha bizning qondoshlar esa, nega buncha yo'qsillikda yuribmiz?" deb o'yladi. Uning o'yi shungacha yetdi"

Xulosa qilib aytganda, badiiy asar bo'sh idishga qiyos qilinadi. Uni o'quvchi o'z ko'nglidagi ma'no bilan to'ldiradi. Agar o'quvchi ko'nglida ma'no bo'lmasa, "idish" bo'sh qolaveradi. Shunisi ham borki, chinakam badiiy asar hech qachon to'lmaydigan bir idishdir. Ulug'bek Hamdam bilan qaysi bir suhbatida Isajon Sulton : "Kitobga turnaqator navbatlar" bo'lishini orzu qilgan edi. Nasib etsa, ana shunday kunlar kelsa, asarlariga turnaqator navbatlarda turilajak yozuvchilardan biri Isajon Sulton bo'ladi deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Isajon Sulton. "Bilga xoqon" roman, qissalar va hikoyalar. Toshkent : Factor books nashriyoti, 2022.

2. Isajon Sulton nasri badiiyati: ilmiy maqolalar, taqriz, adabiy suhbatlar, maktublar/ to'plab nashrga tayyorlovchilar : G.Sattorova, M.Qo'chqorova. - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.

ЎОБ(Ў) N.Rahmonov. Mangu bitiktoshlar ilhomi: <https://uza.uz/posts/25169>.

4. A.Haydarov. Jur'at jasorat va ijodiy mahorat mahsuli: <https://uza.uz/posts/287869>